




# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

## 2/2023



E-ISSN 2181-1466

9 772181 146004



ISSN 2181-6875

9 772181 687004



@buxdu\_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

## 2/2023

<https://buxdu.uz>



**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**  
**2023, № 2**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.  
Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvoohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.  
**Elektron manzil:** nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich**, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.**, filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.**, kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.**, texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.**, fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich**, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Djurayev Davron Raxmonovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich**, kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**O'rayeva Darmonoy Saidjonovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich**, tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich**, tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich**, tarix fanlari doktori, professor (Andijon davlat Pedagogika instituti rektori)

**Boboyev Feruz Sayfullayevich**, tarix fanlari doktori (O'ZR FA tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi)

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich**, siyosiy fanlar doktori, professor

**Qurbonova Gulnoz Negmatovna**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich**, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoir Nematovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonova Zilola Qodirovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Zaripov Gulmurot Toxirovich**, texnika fanlari nomzodi, dotsent

	characteristics	
Saidov Kh.Sh.	Economizing language resources on the example of the word formation of modern English slang	132
Sharipova D.Sh.	The linguistic relationship of symbols	136
Абдувахабова Д.Н.	Тилшуносликда эмотивлик, модаллик ва баҳолаш категорияларининг ўзаро боғликлиги	143
Джалилова З.Б.	Инглиз ва ўзбек тилларида гул номларининг лексик-семантик майдони ҳамда лингвопоэтик хусусиятлари	147
Ибрагимова Н.А.	Аутентик матн тушунчаси, турлари ва таснифи	154
Қаршиев Н.Т.	Қоракўлчилик терминларининг ясаиш усуллари	159
Zikrillayev G'.N., Ro'ziyev Y.B., Safarov F.S.	Dialektik materializm va tilshunoslik metodologiyasi	168
Fayziyeva A.A.	Inson his-tuyg'ulariga oid konseptual modellar	176
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>		
Axmedova S.H.	Ingliz va o'zbek ertaklarida epik ko'makchilar talqini va tasviri	181
Davronova Sh.G'.	Isajon Sultonning "Bibi Salima" hikoyasida milliylik ifodasi	187
Djumayeva N.	Ingliz hamda o'zbek xalq ertaklaridagi sehrlil buyumlar orqali milliy madaniyatning ifodalanishi	192
Karimova D.H., Ahmadova X.N.	Aka-uka Grimm ertaklari o'zbekcha tarjima variantlarining shakllanish omillari va paradigmatic belgilari	198
Khayrullayeva N.N.	The analysis of the setting in the eco-fiction novels "Time is a river", "Sweetgrass", "The summer of lost and found" by American writer Mary Alice Monroe	203
Nodirova F.X.	Sa'dulla Hakim she'riyatida adabiy g'oya va tahlil	209
Rakhmatova M., Rakhmonova J.	XXI Century American prose: analysis of "The hunger games" by Susanne Collins	214
Xamdanova S.B., Tilavova N.	Charlz Dikkensning "Nikolas Niklbining hayoti va sarguzashtlari" romani kompozitsiyasi va tarbiya romanining janr xususiyatlari	219
Jo'rayeva M.J.	Hilda Dulitl she'riyatida imajizm ifodasi	225
Одилова Г.	Болалар адабиётида глуттоник дискурс таржимасида услуб ва маъно адекватлиги	229
Mizrabova J.I.	Uilyam Shekspirning "Qirol Lir" nomli asari tarjimalarida kalamburning qayta voqelantirishdagi muammolari	235
Эльманова М.Т.	Проблема семейных ценностей в романах Джойс Кэрл Оатс "Мать, пропавшая без вести" и "Мы были Малвэнами"	245
<b>MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ</b>		
Narziyeva D.I.	Mashrab devonlari nashrlaridagi tafovutlar	249
<b>"NAVOIY GULSHANI"</b>		
Amonova Z.Q.	Yuzungda zarvaraq har yonki lutfi benihoyatdur	253
<b>PEDAGOGIKA *** ПЕДАГОГИКА *** PEDAGOGICS</b>		
Burxonova M.X.	Tibbiy madaniyat tushunchasining shakllanish tarixi	255
Sariyev R.Sh.	Chizmachilik fanida ijodiy loyihalash faoliyatining pedagogik-psixologik xususiyatlari	259
Xodjayev R.I.	Bokschilarni tayyorlashning psixo-fiziologik xususiyatlari	263
<b>TARIX *** ИСТОРИЯ *** HISTORY</b>		
Ражабова Д.Я.	Бухоро амирлигидаги сунний-шиа ихтилофлари тарихидан	267

### AKA-UKA GRIMM ERTAKLARI O'ZBEKCHA TARJIMA VARIANTLARINING SHAKLLANISH OMILLARI VA PARADIGMATIK BELGILARI

*Karimova Dilafro'z Halimovna,*

*Buxoro davlat universiteti*

*Nemis filologiyasi kafedrası katta o'qituvchisi*

*d.h.karimova@buxdu.uz*

*Ahmadova Xusnora Narzullo qizi,*

*Xorijiy tillar fakulteti, 11.1.NEM 22 guruh talabasi*

*x.n.akhammadova@buxdu.uz*

**Annotatsiya.** Aka-uka Grimmlarning ertaklari boy syujeti, barkamol badiiyati, barqaror kompozitsion qurilishga egaligi va ommaviyligi bilan jahon folklorida o'z o'rniga ega. Ulardagi obraz va personajlar tavsifining tarjimada aniq aks etishi o'quvchining tasavvurini kengaytiradi. Ularning o'zbekcha tarjimalari xalqimiz vakillarini nemis xalqining milliy an'analari, turmush tarzi, kiyim-kechaklari, milliy taomlari, yashash o'rni, muhiti, mehnat sharoiti, o'ziga xos axloq-odob qoidalari bilan tanishtiradi. Ba'zan tarjimalar asosida nemis tilidagi ayrim so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashtirilgani ham ko'zga tashlanadi.

**Kalit so'zlar:** variantlilik, invariant, terminologik mohiyat, lingvomadaniy, spetsifik xususiyat, paradigmatic xususiyat, qiyosiy folklorshunoslik.

**Аннотация.** Сказки братьев Гримм занимают место в мировом фольклоре благодаря богатому сюжету, совершенной художественности, устойчивой композиционной структуре и популярности. Четкое отражение описания образов и персонажей в них при переводе расширяет воображение читателя. Их узбекские переводы знакомят представителей нашего народа с национальными традициями, бытом, одеждой, национальными блюдами, местом проживания, окружающей средой, условиями труда, уникальными правилами этики немецкого народа. Иногда на основе переводов также заметно, что некоторые слова из немецкого языка ассимилировались в узбекский язык.

**Ключевые слова:** Инвариант, вариант, лингвокультурема, терминологическая сущность, лингвокультурология, специфика, парадигматическая особенность, компаративистская фольклористика.

**Abstract.** Fairy tales of the Brothers Grimm have a place in world folklore due to their rich plot, perfect artistry, stable compositional structure and popularity. The clear reflection of the description of the images and characters in them in the translation expands the reader's imagination. Their Uzbek translations introduce the representatives of our people to the national traditions, lifestyle, clothes, national dishes, place of residence, environment, working conditions, and unique rules of ethics of the German people. Sometimes, on the basis of translations, it is also noticeable that some words from the German language have been assimilated into the Uzbek language.

**Key words:** Invariant, variant, linguokulturema, terminological essence, linguocultural, specific feature, paradigmatic feature, comparative folklore.

**Kirish.** Jahon tarjimashunosligida turli tizimli tillarda so'zlashuvchi hamda har xil muhit va sharoitda yashovchi xalqlarning milliy madaniy an'analari, qadriyatlari tarixini, betakror urf-odatlarini, turmush tarzini o'ziga xos yuksak badiiy mujassam etgan ertaklar tarjimasiga hamisha alohida e'tibor qaratilgan. Barcha xalqlarning ma'naviy merosida qadimdan hozirgacha mustahkam o'rin tutib kelayotgan ertaklarga oid ilmiy tadqiqotlar ko'lami tarjimashunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik sohalarida yanada ortib bormoqda. Ma'lumki, nemis ertaklari tarjimasida jahon adabiyoti sahifasining kengayishi uchun, unda adabiy ertak janrining shakllanishi va taraqqiy topishi uchun o'ziga xos ta'sir ko'rsatgan. Bunday tarjima ishlari, avvalo, ertaklarni qiyosiy-tipologik o'rganish, ulardagi o'xshash obraz va motivlarni aniqlash, milliy urf-odatlardagi o'xshash va farqli xususiyatlarni yorqinroq ko'rish imkoniyatini berishi sir emas. Nemis ertaklari jahon epik folklorning bir qismi sifatida o'zbek tarjimon olimlari-yu adiblarining katta e'tiborini qozongan va bu ishga qo'l urganlar, ularni bevosita asliyatdan yoki vosita tillar orqali tarjima qilishni maqsad qilganlar

ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu ish, asosan, o'tgan XX asrning 30-yillaridan boshlangani ko'rinadi. Xususan, tarjimonlarimiz sa'y-harakati bilan o'zbek kitobxonlari o'sha davrdan boshlab ko'proq olmon ertaknavislari aka-uka Grimmlarning ertaklaridan bahramand bo'lishgan.

**Asosiy qism.** Har bir xalqning ertaklari, avvalo, o'sha millatning o'ziga xos poetik an'analari, qadimiy madaniy hayotini, milliy qadriyatlarini o'zida aks ettirishi jihatidan e'tiborlidir. Ayni shu jihati uning boshqa tillarga tarjima qilinishi jarayonini qiyinlashtirsa-da, muayyan millat ruhiyatini, millat mentalitetini ifodalashi jihatidan ahamiyatlidir. Shu sababli ertaklarning bir tildan boshqa tillarga tarjima qilinishi holati ko'p kuzatiladi. Jumladan, nemis xalqining aka-uka Grimmmlar tomonidan yozib olingan va ommalashtirilgan ertaklari o'zbek tiliga ham turli yillarda juda ko'p shoir-u olimlar tomonidan tarjima qilingani kuzatiladi. Shu jarayon bilan bog'liq tarixni, bunda o'zbek tarjimonlarining mahoratini, bir ertakning bir necha bor turli yillarda, har xil mutarjimlar tomonidan tarjima qilinish tarixini, sabab va natijalarini, taraqqiyot belgilarini, mahorat masalalarini o'rganish o'zbek-nemis adabiy aloqalari barobarida folkloriy munosabatlari, madaniy-ma'naviy hamkorligi tarixini o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nemis va o'zbek xalqlarining folklor hamda yozma adabiyotdagi badiiy-estetik tajribalarini o'zaro qiyosiy o'rganishga qiziqish bir necha asrlardan buyon davom etib kelmoqda. Nemis va o'zbek xalqining o'ziga xos milliy qadriyatlari tarkibida ertaklarning alohida o'rni bor. Ular tarixan har xil makonda shakllangan bo'lsa-da, bir-biridan uzoqroq bo'lishiga qaramay, ularning ertaklarida ayrim yaqinliklar borki, ko'p jihatdan ular o'xshashlik, mushtaraklik kasb etadiki, folklor an'analari nuqtai nazaridan ularni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Mana shuni inobatga olib, nemis va o'zbek ertaklarining o'zaro tarjima tarixini, xususan, nemis ertaklarining o'zbek tiliga tarjimalari variantlashgani, bu tarjimalarning o'ziga xos xususiyatlari, paydo bo'lish omillarini o'rganish folklorshunoslikda tadqiq qilinishi zaruriyatga aylangan muammolardan biridir.

Aka-uka Grimmlarning nomi nafaqat nemis o'quvchilariga, balki jahondagi barcha xalqlarga tanishdir. Chunki ularning ertaklari juda ko'p tillarga tarjima qilingan. Albatta, aka-ukalarning nomi bu tarzda jahonga keng tanilishida ularning ertaklari turli tillarga tarjima qilinishi muhim ahamiyat kasb etganini inkor etib bo'lmaydi. Jumladan, ularning ertaklari bilan o'zbek xalqi ham o'tgan asrning 30-yillari oxirlariga kelib tanisha boshlagan.

Aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmmlar nemis xalqining eng sevimli ertakchi-yozuvchilari bo'lib, ular yaratgan ertak butun jahon kitobxonlarning e'tiboriga tushgan. Bunda, albatta, ularning turli tillarga tarjima qilinishi muhim ahamiyat kasb etgan. Ular yaratgan ertaklarning birinchi to'plami "Bolalar va oila" ("Kinder und Familie") nomi bilan 1812 yilda, 1815 yilda ikkinchisi, 1822 yilda esa uchinchi kitoblari nashr qilingan. Bu kitoblar aka-uka Grimmlarning nomini dunyoga tanitdi va tez orada jahonning ko'pgina boshqa tillariga ham tarjima qilina boshlandi.

Bugungi kunda jahonning biror go'shasi yo'qki, aka-uka Grimmmlar ertagi bormagan bo'lsa, birorta madaniy til yo'qki, ular tarjima qilinmagan bo'lsa. Ular jahonning boshqa tillariga tarjima qilinganligidek, bizning ona tilimiz – o'zbek tiliga ham o'girilgan. Mualliflarning ertaklari bilan o'zbek xalqi o'tgan asrning 30-yillari oxirlariga kelib yaqindan tanisha boshlagan. Aniqrog'i, nemis xalq ertaklariga bo'lgan qiziqish O'zbekistonda o'tgan asrning birinchi choragidan kuchaygan. Ular 30-yillarning o'rtalaridan boshlab tarjima qilina boshlangan va qayta-qayta nashr qilingan [1], hozir ham nashr etilmoqda.

Aka-uka Grimmmlar ertaklarining ilk nashrlari o'tgan asrning 30-yillari o'rtalaridan paydo bo'lgan. 1937-yilda aka-uka Grimm ertaklarining ilk to'plami chop etilgan. Bunda ularning tarjimasini va nashri bilvosita (ruscha tarjimasidan) amalga oshirilganligi kuzatiladi. Keyingi yillarda esa ularning tarjimasini bevosita nemis tilidan o'zbek tiliga amalga oshirilgani e'tiborga molik.

1937-yilda "Yosh kuch" jurnalining qator sonlarida Aka-uka Grimmlarning ertaklaridan namunalar e'lon qilib borilgan. Masalan, jurnalning o'sha yilgi 8-sonida aka-ukalarning "Bo'ri bilan etti echki", 9-sonida "Bremen muzikachilari", 1938 yilning 11-12-sonlarida esa "Belyankaxon va Rozaxon" singari ertaklari bolalar e'tiboriga havola qilingan.

1938-yilda aka-uka Grimmlarning "Botir tikuvchi" ertagi ilk marta alohida kitob holida chop ettirildi. Uning tarjimasini F.Rasulov amalga oshirgan. Kitobga B.Vinokurov rasmlar ishlagan. Toshkent-Samarqand Davlat nashriyoti chop ettirgan bu kitob 16 sahifadan iborat.

1938-yilda aka-uka Grimmmlarning ertaklari ilk marta alohida to'plam holida chop ettirildi. "Aka-uka Grimm. Ertaklar" deb nomlangan A.Paxmat tarjimasidagi bu kitob Toshkentdagi Davlat nashriyoti tomonidan o'quvchilar e'tiboriga havola etilgan. 45 sahifalik albom ko'rinishidagi bu kitobning tarkibida 8 ta ertak keltirilgan. Bular: "Bremen muzikasilari", "Mushuk blan sichqan", "Quyvon bilan tpiratkan", "Ahmaq Hans", "Aqli Elza", "Bir xurmasa shavla", "Bori blan jetti echki", "Tulki blan g'azlar" kabi ertaklardir.

Shundan soʻng 1940-yilda aka-uka Grimmlarning ertaklari tarjimasini bolalar va yoshlar adabiyoti nashriyoti tomonidan “Oltin gʻoz” nomi bilan alohida kitobcha shaklida eski lotin yozuvida nashr ettirilgan. 16 sahifadan iborat bu ertaklarning tarjimasini Vahob Roʻzmatov amalga oshirgan. Ushbu toʻplam, asosan, aka-ukalarning tushunariligi jihatidan kichik va maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mos kelishi eʼtiborga olinib, shu yoshdagi kichikintoylarga tuhfa sifatida chop qilingan.

XX asr 40-60-yillarida aka-uka Grimm ertaklarining oʻzbekcha tarjimalari miqdori yanada ortdi. Jumladan, 1945 yilda Davlat nashriyoti aka-ukalarning “Poya koʻmir va lovyia” deb nomlangan jikki kitobchani kirill alifbosida ham chop etgan. Unda “loviya” soʻzi “lovyia” tarzida fonetik prinsip asosida reduksiya holatiga mos yozilgani kuzatiladi. Kitobda yolgʻiz shu ertak rasmlar bilan keltirilgan.

1954-yilda aka-uka Grimmlarning ertaklari “Etti qargʻa” nomi ostida Oʻzbekiston Respublikasi Davlat nashriyoti tomonidan yana bir marta nashr ettirilgan. Musavvir A.Minaev rasmlar bilan bezatgan bu kitobda “Etti qargʻa”, “Botir tikuvchi”, “Boʻron kampir”, “Oltovlon bir boʻlib butun dunyoni aylanib chiqamiz”, “Bremen muzikachilari”, “Yosh pahlavon”, “Uch ogʻa-ini”, “Quyvon bilan tipratikan”, “Sirli odamchalar”, “Foydali ish”, “Boyqush”, “Yalqov Geysn”, “Etti botir”, “Oʻrmondagi uycha”, “Jinqarcha” kabi 15 ertak keltirilgan. Ularning tarjimasini M.Sodiqova amalga oshirgan.

1963-yilda aka-uka Grimmlarning ertaklari “Boʻron kampir” nomi ostida “Yosh gvardiya” nashriyoti tomonidan amalga oshirilgan. Unda R.Fuzailova tarjima qilgan “Boʻron kampir”, “Zolushka” ertaklari qatori M.Sodiqova oʻzbekchaga oʻgʻirgan “Bremen muzikachilari”, “Yosh pahlavon”, “Sirli odamchalar”, “Foydali ish”, “Yalqov Geysn”, “Botir tikuvchi” kabi jami 8 ta ertak oʻquvchilar eʼtiboriga havola qilingan. Bu ertaklarda dangasa va epchil qizlar, oʻzi yosh boʻlishiga qaramay katta kuchga ega boʻlgan yosh pahlavon, kambagʻal kosibga yordam bergan sirli odamchalar va nihoyat, goʻzal Zolushka haqidagi qiziqarli va moʻjizaviy tasvirli ertaklar keltirilgan.

XX asrning 70-80-yillariga kelib, aka-uka Grimm ertaklariga qiziqish yanada kuchaydi. Aka-uka Grimm ertaklarining ruscha tarjimasini vositasida Surayyo Toʻraxonova 1978-yilda tarjima qilib, “Yosh gvardiya” nashriyoti tomonidan albom koʻrinishida chop ettirgan yana bir toʻplamda “Bremen mashshoqlari”, “Quyvon bilan tipratikan”, “Somon, choʻgʻ va loviya”, “Bir xumcha shovla”, “Boʻron kampir”, “Yetti qargʻa”, “Yalqov Geysn”, “Mitti odamchalar”, “Oqoyim va Guloyim”, “Uch baxtiyor”, “Qoʻli gul qizcha”, “Botir tikuvchi”, “Tulki bilan gʻozlar”, “Uch aka-uka” kabi ertaklar tarjimasini amalga oshirilib, kichik maktab yoshidagi bolalar uchun taqdim etilgan. Shu kitobning oʻzida izohlanishicha, tarjimon uni “Detskaya literatura”ning 1967-yilgi nashridan tarjima qilgan. Hajmi 80 bet.

1989-yilda Sano Saidov ham aka-uka Grimmlarning “Uch aka-uka” hamda “Chol va uning nevarasi” ertaklarini olmon tilidan oʻzbekchaga oʻgirib, yoshlarga moʻljallangan “Gulxan” jurnalining 11-sonida eʼlon qilgan.

1990-yilda aka-uka Grimm va Vilgelm Gauf qalamiga mansub 10 ta ertakdan iborat toʻplam bevosita nemischa-oʻzbekcha tarjimada nashr etildi. Bu Sharif Roʻziev va Mavlton Javboʻrievlar tarjimasidagi “Sirli kema” toʻplamidir. Mustaqillik yillariga kelib, aka-uka Grimm ertaklarining tarjima qilinishi jarayoni yanada taraqqiy etganligi seziladi. Bu esa, Oʻzbekistonda ertak tarjimachiligining maʼlum tadrijiy taraqqiyot bosqichini bosib oʻtganligini ham koʻrsatadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Xurram Rahimov va Sharifa Salimovalar tarjimasida “Etti oqqush” nomli olmon xalq ertaklari toʻplami chop etildi. Uning tarkibidan aka-uka Grimmlarning “Bremen muzikachilari”, “Botir tikuvchi”, “Boʻron kampir”, “Quyvon bilan tipratikan” kabi ertaklari oʻrin olgan. Maʼlumki, bu ertaklar turli yillarda turli tarjimonlar tomonidan takror-takror tarjima qilib kelinishi oqibatida ularning har xil tarjima variantlari kelib chiqqan.

2015-yilda “Oila davrasida oʻqish uchun” rukni bilan chop etilgan “Ertaklar” kitobida aka-uka Grimmlarning “Qurbaqa shahzoda”, “Shirinlik uycha”, “Rapunsel”, “Bremen mashshoqlari” kabi toʻrtta ertaklari lotin yozuvida keltirilgan [4; 256]. Unda taʼkidlanganidek, ushbu “kitobda buyuk ertakchilarning deyarli ikki yuz yil davomida butun dunyo bolalari sevib mutolaa qilib kelayotgan eng mashhur ertaklari jamlangan. Bundan yuz yil muqaddam boʻlgani singari hozir ham “Bremen mashshoqlari”, “Boʻron kampir” va boshqa ertaklar kichikintoylarning eng sevimli ertaklari boʻlib qolmoqda.

Mazkur kitobdan oʻrin olgan “Qurbaqa shahzoda” va “Shirinlik uycha” ertaklarini mutarjim Abdurahmon Akbar nemis tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilgan. “Rapunsel” hamda “Bremen mashshoqlari” ertaklarini esa tarjimon Ozoda Azimova oʻzbek tiliga oʻgʻirgan. Bu ertaklardan faqatgina “Bremen mashshoqlari” eng koʻp tarjima variantlariga ega. Shulardan “Shirinlik uycha” ertagi ilk bor nemis tilidan oʻzbek tiliga oʻgirilgan. Uning tarjimoni Abdurahmon Akbar.

“Qurbaqa shahzoda” ertagi bilan “Rapunsel” ertagining tarjima variantlari ham mavjud. “Qurbaqa shahzoda” ertagining tarjimoni ham Abdurahmon Akbar. “Rapunsel” ertagi Ozoda Azimova tomonidan o‘zbek tiliga o‘g‘irilgan.

2020-yilda aka-uka Grimm ertaklari 4 ta kitob ko‘rinishida lotin yozuviga asoslangan hozirgi o‘zbek tili alifbosida chop qilindi. Uning ilk kitobi “Mittivoylar sovg‘asi” deb nomlangan. Undagi ertaklarni Xurram Rahimov va Gulrux Rahimovalar bevosita olmon tilidan tarjima qilishgan [9; 96]. Uning so‘zboshisida ta’kidlanganidek, ushbu kitobda aka-uka Grimmlarning saralangan ertaklari jamlangan. Ularni Grimmlar xalq og‘zidan yozib olib, olmon adabiy tili normalariga moslashtirishgan. Ushbu ertaklar olmon xalq og‘zaki ijodi mahsulidir.

“Mittivoylar sovg‘asi” to‘plamining mundarijasini “Olti oqqush”, “Oq ilon”, “Topishmoq”, “Shirin bo‘tqa”, “Bobo va nevara”, “Asalarilar qirolichasi”, “Vafodor it”, “Kuylovchi suyak”, “O‘n ikki ovchi”, “Kelin ko‘rdi”, “Mittivoylar sovg‘asi”, “Bo‘ri bilan odam”, “Dono Gretel”, “Trude xonim”, “Qorqiz”, “Bremenlik mashshoqlar” nomli 16 ertak tashkil qilgan. Aka-uka Grimm ertaklarining 2-kitobi “Yalqov to‘quvchi” nomi bilan e‘lon qilingan [11; 96]. Bu kitob uchinchi nashr bo‘lib, undagi olmon ertaklari Xurram Rahimov va Gulrux Rahimova tomonidan tarjima etilgan.

Sarguzashtlarga boy, quvnoq ruhdagi ertaklarni o‘zida jamlagan mazkur mo‘jaz to‘plam tarkibidan aka-uka Grimmlarning “Kuloyim”, “Barmoqvoyning sarguzashtlari”, “Yorinda va Yoringel”, “Bigiztumshuq va ayiq”, “Nog‘orachi”, “Tegirmonchi yigit va mushukcha”, “Yalqov to‘quvchi”, “Opa va uka haqida ertak”, “Eng qashshoq va eng badavlat qiz”, “Cho‘qqisoqol qiroli” kabi 10 ta ertagi o‘rin olgan.

Aka-uka Grimm ertaklaridan tuzilgan 3-kitob “Bo‘ron kampir” deb nomlangan. Ma‘lumki, aka-ukalarning bu nom bilan avval ham 1963 yilda R.Fuzailova, M.Sodiqova tarjimasidagi 8 ta ertagi kitob holida chop etilgan edi. Demak, bu nom ikkinchi bor takrorlanmoqda. Ushbu kitob Xurram Rahimov va Gulrux Rahimova tarjimasidagi uchinchi nashridir [2; 96]. To‘plam mundarijasidan “Bo‘ron kampir”, “Omadli Hans”, “Qurbaqa shahzoda yoxud zanjirband Haynrix”, “Janob Korbes”, “Folbin hakim”, “Bo‘tqali qozon”, “Etti qarg‘a”, “Sim-sim tog‘i”, “Bo‘ri bilan etti uloqcha”, “Quyvon bilan tipratikan”, “Qizil qalpoqcha”, “Botir tikuvchi” nomli 12 ta ertak joy olgan.

Aka-uka Grimm ertaklarining Xurram Rahimov va Gulrux Rahimova tarjimada e‘lon qilingan 4-kitobi “Uch ip yigiruvchi” deb nomlangan bo‘lib, ikkinchi nashridir. Unda “Sichqoncha, qushcha va bratvurs haqida ertak”, “Uch ip yigiruvchi”, “Qo‘zichoq va baliqcha”, “Rumpelshtilxsen”, “Yetti shvab”, “Cho‘pon bola”, “O‘rmondagi uy”, “Baliqchi va uning xotini”, “Ochil dasturxon, oltin eshak va urto‘qmoq” kabi 10 ta ertak keltirilgan [10; 72].

Ushbu kitob aka-uka Grimmlarning “Mittivoylar sovg‘asi”, “Yalqov to‘quvchi”, “Bo‘ron kampir” nomli ertak kitoblarining mantiqiy davomi sifatida taassurot uyg‘otadi.

Aka-uka Grimmlarning “Mittivoylar sovg‘asi”, “Yalqov to‘quvchi”, “Bo‘ron kampir”, “Uch ip yigiruvchi” nomli kitoblarida keltirilgan ertaklarning ayrimlari 1954-, 1991- va 2001-yillarda chop ettirilgan to‘plamlarda ham berilgan. Biroq ularning tarjimasida tarjimonlar tomonidan uslubiy jihatdan qayta ko‘rib chiqilgan va sezilarli darajada o‘zgartirilgan. Ushbu ertaklar aka-uka Grimmlarning Germaniyada nashr etilgan “Kider-und Hausmärchen”, “Gesammelt durch die Brüder Grimm”, “Berlin und Weimar”, “Aubau-Verlag 1967” nashridagi 210 ta ertagi orasidan saralab olingan. Agar bu ertaklar asli bilan yonma-yon qo‘yib o‘qilsa, nemis tilini lug‘atsiz o‘rganish imkonini bera oladi. Qolaversa, bu to‘plamdagi ertaklar didaktik jihatdan ham oldingi tarjimalardan farq qiladi. Shuning uchun ularni “tarjima variant”lari sifatida qabul qilish mumkindir.

Hozirgi vaqtda aka-uka Grimmlar ertaklarining nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjimalari mahalliy nashrlar, ommaviy axborot sahifalaridan tashqari Internet saytlari orqali ham keng tarqalganligini ham alohida qayd etish mumkin.

**Xulosa.** Nemis ertakchilari aka-uka Grimmlarning ijod namunalari turli yillarda bir necha bor bevosita nemis tilidan hamda bilvosita rus tili orqali o‘zbek tiliga tarjima qilingan bo‘lib, ayni paytda, ana shu tarjima ishlarini yig‘ib o‘rganishga, ularni qiyoslagan holda yutuq va kamchiliklarini aniqlashga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, uning mustaqillik yillarida amalga oshirilgan variantlarini aniqlab, qiyosiy jihatdan chuqurroq o‘rganish lozim. Negaki, nemis ertakchilari aka-uka Grimmlarning ijod namunalari tarjimalari shoir, yozuvchi yoki mutarjimlar tomonidan amalga oshirilgani sababli turlicha darajada namoyon bo‘ladi. Aka-uka Grimmlarning ertaklari boy syujeti, barkamol badiiyati, barqaror kompozitsion qurilishga egaligi va ommaviyligi bilan jahon folklorida o‘z o‘rniga ega. Ulardagi obraz va personajlar tavsifining tarjimada aniq aks etishi o‘quvchining tasavvurini kengaytiradi. Ularning o‘zbekcha tarjimalari xalqimiz vakillarini nemis xalqining milliy an‘analari, turmush tarzi, kiyim-kechaklari, milliy taomlari, yashash o‘rni, muhiti, mehnat

sharoiti, oʻziga xos axloq-odob qoidalari bilan tanishtiradi. Baʼzan tarjimalar asosida nemis tilidagi ayrim soʻzlarning oʻzbek tiliga oʻzlashtirilgani ham koʻzga tashlanadi. Aka-uka Grimmlar oʻz adabiy ertaklari orqali nemis xalqining oʻzligini tanitishga, xalqining dilidagi orzu-istaklarini topib, sodda, xalqchil uslubda, yuqori badiiy shaklda ifodalashga muvaffaq boʻldilar. Grimmlar yaratgan ertaklar nihoyatda rang-barang boʻlib, ularning tematik doirasi keng, mazmuni inson faoliyati, hayvonlar va jonivorlar, tabiiy hodisalarning juda koʻp tomonlarini qamrab olgan.

### ADABIYOTLAR:

1. *Boʻri bilan yetti echki. – Yosh kuch. – 1937. – № 8. – B.15-17; Bremen musiqachilari. – Yohs kuch. – 1937. – № 9. – B.1- 4; Beljankaxan va Rozaxan. – Yosh kuch. – 1938. – № 11-12. – B.37-39; Aka-uka Grimm. Ertaklar. A.Rahmatov tarjimasi. – Toshkent: Davlat adabiyoti nasriyoti, 1938. – 45 b.; Aka-uka Grimm. Altin Qaz. V. Rozmatov tarjimasi. – Toshkent: Balalar va yoshlar adabiyoti nasyriyoti, 1939-40. – B.16.*
2. *Бўрон кампир: эртақлар / Ака-ука Гримм. Учинчи наири. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2020. – 96 б.*
3. *Д.Х.Каримова. Вариантность в переводе (на примере произведений братьев Гримм). Вестник науки и образования, 2019.*
4. *Ertaklar. Oila davrasida oʻqish uchun. – Toshkent: “Davr nashriyoti”, 2015. – 256 b.*
5. *Halimovna K.D. On the history of the creation of girmm brothers 'fairy tales and their translations into uzbek //Euro-Asia Conferences. – 2021. – T. 3. – №. 1. – pp. 85-87.*
6. *Halimovna K.D. Variability and invariability in fairy tales (As the example of the translation of grimmsfairy tales) //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – T. 24. – №. 1. – pp. 138-144*
7. *Karimova Dilafroz Halimovna. Aka-uka Grimm ertaklari oʻzbekcha tarjima variantlarining davriy statistikasi. OʻzMU xabarlar, ISSN 2181 – 7324. B.228-231.*
8. *KD Halimovna. The Influence of Language and Principles of Translation on the Origin of Variation and Invariance in Translation. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 2022.*
9. *Муттивоёллар совғаси: эртақлар / Ака-ука Гримм. Учинчи наири. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2020. – 96 б.*
10. *Уч ин йиғирувчи: эртақлар. Ака-ука Гримм. Иккинчи наири. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2020. – 72 б.*
11. *Ялқов тўқувчи: эртақлар / Ака-ука Гримм. Учинчи наири. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2020. – 96 б.*